


57. O'nlikdan ayirish usuli

kamayuvchi
ayriluvchi
ayirma
o'nlikdan ayirish



$$12 - 8 = 2 + (10 - 8) = 2 + 2 = 4$$



1. Likopchada 11 ta muz bo'lakchasi bor edi. Ularning bir qismi stakandagi issiq suvga solindi. Likopchada 6 ta muz bo'lakchasi qoldi, stakandagi muz bo'lakchalari esa yo'qolib qoldi. Nechta muz bo'lakchasi yo'qolib qoldi? Muz bo'lakchalari qayerga yo'qoldi?



2. Namunaga qarab hisoblang.



$$16 - 9 = (10 - 9) + 6 = 1 + 6 = 7$$



$$17 - 8$$



3. Ona suvni muz bo'lakchalari yasaydigan idishga quydi va muzlatish uchun muzlatgichga qo'ydi. Ikki soatdan so'ng 15 ta muz bo'lakchasi hosil bo'ldi. Agar ona shisha idishdagi iliq sharbatni sovitish uchun unga 8 ta muz bo'lakchasini solsa, nechta muz bo'lakchasi qoladi?

[illegible]

4. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing.
Kim qonuniyatni topsa va tushirib qoldirilgan sonlarni tez o'rniga qo'ysa, shu g'olib sanaladi. Kim tezroq bajardi? Kim to'g'ri bajardi?



5. Amallarni ikki usul bilan bajaring: o'nlikdan ayirish hamda 10 gacha kamaytirish bilan. Nimani sezdingiz?

[illegible]